

UDK: 94(575.1):631.1(091)

O‘ZBEKISTONDA 1927–1929-YILLARDA YER VA SUVNING MILLIYLASHTIRILISHI: MAQSAD VA OQIBATLAR

Yaxshiyev Anvar Jurakulovich

Texnologiya, menejment, kommunikatsiya instituti

“Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar” kafedrası

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: yaxshiyev.anvar@tmci.uz

Tel. 94 642 06 62

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda 1927–1929-yillarda amalga oshirilgan yer va suvni milliyalashtirish siyosati tarixiy nuqtai nazardan kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu agrar islohotning vujudga kelish sabablari, uning siyosiy-iqtisodiy maqsadlari hamda amalga oshirish mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, yer va suv resurslarini davlat tasarrufiga o‘tkazish jarayonining ijtimoiy tuzilma, dehqon xo‘jaliklari va agrar ishlab chiqarishga ta‘siri ochib beriladi. Maqolada milliyalashtirish siyosatining qisqa va uzoq muddatli oqibatlari, jumladan, ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi, shuningdek, majburiy kollektivlashtirish jarayonlariga zamin yaratganligi tarixiy dalillar asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari ushbu jarayonning murakkab va ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar:** yer-suv islohoti, milliyalashtirish, agrar siyosat, sovet hokimiyati, dehqonlar, kollektivlashtirish, ijtimoiy tenglik, O‘zbekiston tarixi.*

ABSTRACT

This article provides a comprehensive historical analysis of the land and water nationalization policy implemented in Uzbekistan during 1927–1929. The study examines the causes of this agrarian reform, its political and economic objectives, as well as the mechanisms of its implementation on a scientific basis. Furthermore, it explores the impact of transferring land and water resources into state ownership on the social structure, peasant households, and agricultural production. The article also evaluates the short-term and long-term consequences of the nationalization policy, including the establishment of social equality, the transformation of property relations, and its role in laying the foundation for forced collectivization, based on historical evidence. The findings demonstrate that this process had a complex and contradictory nature.

Keywords: *land and water reform, nationalization, agrarian policy, Soviet power, peasants, collectivization, social equality, history of Uzbekistan.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится комплексный исторический анализ политики национализации земли и воды, осуществлённой в Узбекистане в 1927–1929 годах. В исследовании рассматриваются причины возникновения данной аграрной реформы, её политико-экономические цели, а также механизмы реализации на научной основе. Кроме того, раскрывается влияние передачи земельных и водных ресурсов в государственную собственность на социальную структуру, крестьянские хозяйства и сельскохозяйственное производство. В статье также оцениваются краткосрочные и долгосрочные последствия политики национализации, включая обеспечение социальной справедливости, трансформацию отношений собственности, а также её роль в подготовке условий для принудительной коллективизации на основе исторических фактов. Результаты исследования показывают, что данный процесс носил сложный и противоречивый характер.

Ключевые слова: *земельно-водная реформа, национализация, аграрная политика, советская власть, крестьяне, коллективизация, социальная справедливость, история Узбекистана.*

KIRISH

XX asrning 20-yillari oxiri O‘zbekiston tarixida agrar munosabatlarning tubdan qayta qurilishi bilan tavsiflanadigan eng murakkab va ziddiyatli davrlardan biri sifatida alohida ilmiy e‘tibor talab etadi. 1927–1929-yillarda amalga oshirilgan yer va suvni milliy lashtirish siyosati mazmunan sovet davlatining agrar sohada olib borgan strategik siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, u jamiyatning iqtisodiy asoslarini emas, balki ijtimoiy tuzilmasini ham qayta shakllantirishga qaratilgan edi. Mazkur jarayonni tarixiy nuqtai nazardan yaxlit tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u mustamlakachilik davrida shakllangan agrar nomutanosiblik, feodal qoldiqlar hamda sovet hokimiyatining mafkuraviy maqsadlari o‘zaro tutashgan murakkab tarixiy sharoit mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

Tarixiy manbalar guvohlik berishicha, Rossiya imperiyasi davrida Turkiston o‘lkasida yer egaligi tizimi keskin ijtimoiy tabaqalanish bilan xarakterlangan bo‘lib, yerlarning asosiy qismi oz sonli boylar va diniy tashkilotlar qo‘lida jamlangan edi. Bu haqda A. Gurevich quyidagicha yozadi: “Turkiston qishloqlarida yer egaligi tizimi ijtimoiy tengsizlikning keskin shakllanishiga olib kelgan, bunda ozchilik yer egalari katta iqtisodiy ustunlikka ega bo‘lgan” [1, 50-b.]. Ushbu fikrni ilmiy-ijodiy jihatdan

tahlil qilgan holda ta'kidlash mumkinki, mazkur holat nafaqat iqtisodiy muvozanatni buzgan, balki ijtimoiy adolatsizlikning chuqurlashuviga ham xizmat qilgan. Shu sababli sovet agrar siyosati aynan ushbu tarixiy nomutanosiblikni bartaraf etishni o'z oldiga asosiy vazifa sifatida qo'ygan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yer va suvni milliyashtirish siyosati tarixiy zaruriyat sifatida asoslangan bo'lsa-da, uning amalga oshirilish mexanizmi va natijalari murakkab va ko'p qirrali bo'lgan. Zamonaviy tadqiqotchi D. Xojiraxmatova bu jarayonni tahlil qilib, "yer-suv islohotlari Markaziy Osiyoda sovet agrar siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmani tubdan o'zgartirishga qaratilgan edi" deya ta'kidlaydi [2, 132-b.]. Bizning fikrimizcha, muallifning ushbu yondashuvi islohotlarning strategik mohiyatini ochib beradi, ya'ni ular faqat iqtisodiy chora-tadbir emas, balki jamiyatni ideologik jihatdan qayta qurish vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

Biroq tarixiy jarayonni bir yoqlama baholash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Chunki mazkur islohotlar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlar o'zida ijobiy va salbiy jihatlarni birlashtirgan dialektik xarakterga ega edi. Bu haqda M.E. Askarov quyidagicha fikr bildiradi: "yer-suv islohoti bir tomondan ijtimoiy tenglikni kuchaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan qishloq xo'jaligida yangi ziddiyatlarni yuzaga keltirdi" [3, 35-b.]. Ushbu fikrni chuqurroq tahlil qilgan holda aytish mumkinki, tarixiy jarayon sifatida milliyashtirish siyosati eski tizimni inkor etish orqali yangi tizimni shakllantirgan bo'lsa-da, u o'z navbatida yangi ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqargan.

Ayniqsa, suv resurslarining milliyashtirilishi masalasi alohida tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, sug'orma dehqonchilik ustuvor bo'lgan O'zbekiston sharoitida suv iqtisodiy hayotning asosiy omili hisoblangan. Shu bois uning davlat tasarrufiga o'tkazilishi agrar tizimni markazlashgan boshqaruvga o'tkazishning muhim bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Bu haqda tadqiqotlarda "suv resurslarining markazlashuvi irrigatsiya tizimini tartibga solgan bo'lsa-da, u byurokratik boshqaruvning kuchayishiga olib keldi" deb qayd etiladi [2, 133-b.]. Bizningcha, ushbu holat sovet iqtisodiy modelining o'ziga xos xususiyatini, ya'ni markazlashuv va boshqaruvning ustuvorligini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, yer va suvni milliyashtirish jarayoni keyinchalik amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati uchun muhim tarixiy zamin yaratdi. Ya'ni, mulkchilik munosabatlarining davlatlashtirilishi orqali dehqon xo'jaliklarini kolxoz va sovxozlarga birlashtirish imkoniyati yuzaga keldi. Bu jarayon haqida H. Ro'ziyeva "yer-suv islohotlari sotsialistik tizimni shakllantirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, ular og'ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelgan" deb ta'kidlaydi [4, 569-b.].

Ushbu fikrni ilmiy jihatdan umumlashtirgan holda aytish mumkinki, mazkur islohotlar tarixiy jarayon sifatida o'zida taraqqiyot va inqiroz elementlarini birlashtirgan.

1927–1929-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan yer va suvni milliyashtirish siyosati tarixiy taraqqiyotning murakkab bosqichi bo'lib, u agrar munosabatlarni tubdan o'zgartirgan, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini qayta shakllantirgan hamda keyingi kollektivlashtirish jarayonlariga asos yaratgan. Shu bois mazkur mavzuni chuqur tarixiy tahlil qilish nafaqat o'tmishdagi agrar siyosat mohiyatini anglash, balki zamonaviy agrar islohotlarni ilmiy asosda baholash uchun ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonda 1927–1929-yillarda yer va suvning milliyashtirilishi masalasi tarixshunoslikda ko'p qirrali va turli davrlarda turlicha talqin etilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo sovet davri tarixshunosligi, mustaqillik davri tadqiqotlari hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlar kesishmasida o'rganilib, uning mohiyati, maqsadlari va oqibatlariga nisbatan turli qarashlar shakllangan.

Sovet davri tarixshunosligida yer-suv islohoti asosan progressiv va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi siyosat sifatida talqin etilgan. Xususan, A. Gurevich o'z tadqiqotida “yer-suv islohoti agrar tuzumini tubdan o'zgartirib, yirik yer egaligini tugatish va dehqonlarni yer bilan ta'minlash orqali sotsialistik tizimni mustahkamlashga xizmat qilgan” deb ta'kidlaydi [1, 52-b.]. Muallifning ushbu fikrida sovet mafkuraviy yondashuvi yaqqol seziladi, ya'ni islohotlar ijobiy natijalarga urg'u berilgan holda baholanadi. Bizning fikrimizcha, Gurevichning yondashuvi tarixiy manbalar bilan boyitilgan bo'lsa-da, unda jarayonning ziddiyatli jihatlari yetarli darajada ochib berilmagan.

Shu bilan birga, sovet davrida olib borilgan ayrim statistik va iqtisodiy tadqiqotlarda ham yer-suv islohotining natijalari qisman yoritilgan bo'lib, ularda asosan agrar ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar va yer taqsimotining yangi tizimi tahlil qilingan. Biroq bu tadqiqotlar ko'pincha ideologik chegaralar bilan cheklanganligi sababli, jarayonning ijtimoiy oqibatlari chuqur tahlil qilinmagan.

Mustaqillikdan keyingi davr tarixshunosligida mazkur masalaga nisbatan tanqidiy yondashuv kuchaydi. Xususan, zamonaviy tadqiqotchi D. Xojiraxmatova “yer-suv islohotlari iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmani o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa-da, ular dehqonlar orasida qarshilik va ijtimoiy beqarorlikni ham yuzaga keltirgan” deb qayd etadi [2, 132-b.]. Muallifning ushbu yondashuvi islohotlarning ikki tomonlama – ijobiy va salbiy jihatlarini ochib berishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bizningcha, aynan mustaqillik davri tadqiqotlarining ustuvor jihati ham shundaki, ular tarixiy jarayonni ideologik cheklolardan xoli holda, xolis baholashga intiladi.

Shuningdek, M.E. Askarov o‘z ilmiy ishida yer-suv islohotining hududiy xususiyatlarini tahlil qilib, “islohotlar turli hududlarda bir xil natija bermagan, ayrim joylarda ular ijtimoiy tenglikni kuchaytirgan bo‘lsa, boshqa hududlarda yangi muammolarni yuzaga keltirgan” deb ta’kidlaydi [3, 35-b.]. Ushbu fikrni ilmiy jihatdan tahlil qilgan holda aytish mumkinki, muallif yer-suv islohotining lokal xususiyatlarini ochib berib, uni yagona model asosida baholash mumkin emasligini asoslaydi.

Zamonaviy tarixshunoslikda yer-suv islohoti masalasi kengroq – agrar siyosat, kollektivlashtirish va sovet iqtisodiy modeli kontekstida o‘rganilmoqda. Xususan, H. Ro‘ziyeva “1925–1941-yillarda amalga oshirilgan agrar islohotlar, jumladan yer-suvni milliyashtirish siyosati keyinchalik majburiy kollektivlashtirishga olib kelgan” deb ta’kidlaydi [4, 569-b.]. Bu yondashuv yer-suv islohotini mustaqil jarayon sifatida emas, balki sovet agrar siyosatining uzviy bosqichi sifatida talqin etadi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv tarixiy jarayonning uzviyligini ochib berishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, O‘zbekiston tarixiga oid umumiy tadqiqotlarda ham yer-suv islohoti masalasi alohida o‘rin egallaydi. Masalan, Usmonov va Sodiqov “yer-suv islohoti sovet davrida agrar munosabatlarni tubdan o‘zgartirgan muhim siyosiy-iqtisodiy chora-tadbirlardan biri bo‘lib, u jamiyatning keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilab bergan” deb ta’kidlaydilar [5, 145-b.]. Ushbu fikrni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, yer-suv islohoti nafaqat agrar tizim, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan kompleks jarayon hisoblanadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yer va suvni milliyashtirish siyosati turli davrlarda turlicha baholangan: sovet davrida u progressiv islohot sifatida, mustaqillik davrida esa ziddiyatli tarixiy jarayon sifatida talqin etilgan. Zamonaviy tadqiqotlar esa ushbu masalaga kompleks yondashuv asosida qarab, uning ijobiy va salbiy jihatlarini uyg‘un holda tahlil qilishga intilmoqda. Shu bois mazkur mavzuni yanada chuqur o‘rganish, ayniqsa, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kompleks tahlil qilish zamonaviy tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda 1927–1929-yillarda yer va suvni milliyashtirish jarayoni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Ishda tarixiy-tahliliy va qiyosiy yondashuvlar asos qilib olinib, agrar islohotlarning kelib chiqish sabablari, amalga oshirish mexanizmlari hamda oqibatlari kompleks tarzda o‘rganildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv orqali yer-suv islohoti ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida baholanib, uning jamiyat tuzilmasiga ta'siri aniqlashtirildi. Tarixiy-genetik usul yordamida islohotning rivojlanish bosqichlari va uning kollektivlashtirish siyosati bilan uzviy bog'liqligi ochib berildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy xulosalarini asoslash va tarixiy jarayonni xolis baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. 1927–1929-yillarda O'zbekistonda yer va suvni milliyashtirish siyosatini tarixiy jarayon sifatida yaxlit tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur islohot o'z mohiyatiga ko'ra agrar tuzumni tubdan o'zgartirishga qaratilgan kompleks va ko'p qatlamli transformatsiya bosqichi bo'lgan. Ushbu jarayon avvalo mulkchilik munosabatlarning qayta tashkil etilishi orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yangilashga yo'naltirilgan bo'lib, unda tarixiy zaruriyat, siyosiy maqsad va mafkuraviy yo'nalish o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yer va suvni milliyashtirish siyosati agrar tizimdagi mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etish, yirik yer egaligini tugatish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash kabi maqsadlarni ko'zlagan. Islohot natijasida yer va suv resurslarining davlat tasarrufiga o'tkazilishi mulkchilikning xususiy shaklidan markazlashgan davlat tizimiga o'tishni ta'minlab, agrar munosabatlarda tub burilish yasadi. Bu jarayon qisqa muddatda ijtimoiy tabaqalanishni yumshatishga va dehqon xo'jaliklarini yer bilan ta'minlash orqali muayyan darajada ijtimoiy adolatni tiklashga xizmat qildi.

Biroq mazkur jarayonning ichki mexanizmlarini chuqurroq tahlil qilish uning murakkab va ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ochib beradi. Bir tomondan, yerlarning qayta taqsimlanishi natijasida ilgari iqtisodiy jihatdan qaram bo'lgan qatlamlar nisbatan mustaqil xo'jalik yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ikkinchi tomondan esa, milliyashtirish siyosatining majburiy xarakter kasb etishi dehqonlarning iqtisodiy erkinligini cheklab, ularni davlat boshqaruv tizimiga to'liq bog'lab qo'ydi. Shu tariqa, iqtisodiy mustaqillikning kengayishi bilan bir vaqtda uning cheklanishi jarayoni ham parallel ravishda kechdi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yer va suv resurslarining davlat tasarrufiga o'tkazilishi agrar ishlab chiqarishda markazlashuvni kuchaytirib, boshqaruv tizimining vertikal tuzilishini shakllantirdi. Bu esa resurslardan foydalanishda tartib-intizomni ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa-da, mahalliy tashabbus va xo'jalik yuritish erkinligini chekladi. Ayniqsa, suv resurslarining markazlashuvi sug'orish tizimini nazorat qilish imkonini kengaytirgan, biroq bu jarayon ko'pincha byurokratik mexanizmlar orqali amalga oshirilgani sababli uning samaradorligi har doim ham yuqori bo'lmagan.

Tahlil shuni ham ko'rsatadiki, mazkur siyosat keyinchalik amalga oshirilgan kollektivlashtirish jarayonining muhim institutsional asosini yaratdi. Yer va suvning davlat mulkiga aylantirilishi natijasida dehqon xo'jaliklarini kolxoz va sovxozlarga birlashtirish uchun zarur shart-sharoit vujudga keldi. Bu esa agrar tizimni individual xo'jalik yuritish shaklidan kollektiv boshqaruv tizimiga o'tishiga olib keldi. Natijada ishlab chiqarish jarayoni markazlashgan holda tashkil etildi, biroq bu holat dehqonlarning shaxsiy manfaatdorligini kamaytirib, iqtisodiy rag'bat tizimining zaiflashishiga sabab bo'ldi.

Uzoq muddatli natijalar nuqtai nazaridan qaraganda, yer va suvni milliyashtirish siyosati agrar munosabatlarni modernizatsiya qilishga xizmat qilgan bo'lsa-da, uning oqibatlarini iqtisodiy samaradorlikning pasayishi, resurslardan foydalanishda nomutanosiblik va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi bilan ham xarakterlanadi. Ayniqsa, majburiy boshqaruv elementlarining ustuvorligi agrar tizimda moslashuvchanlikning pasayishiga olib kelgan.

Shu bilan birga, mazkur jarayon tarixiy jihatdan jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida baholanadi, chunki u eski agrar tuzumni bartaraf etib, yangi iqtisodiy modelning shakllanishiga zamin yaratdi. Bu jihatdan qaraganda, yer va suvni milliyashtirish siyosati o'zida tarixiy inkor va yangilanish jarayonlarini mujassamlashtirgan dialektik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar yer va suvni milliyashtirish siyosati qisqa muddatda ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, uzoq muddatda murakkab va ziddiyatli oqibatlarga olib kelganligini ko'rsatadi. Mazkur jarayon agrar munosabatlarning keyingi rivojlanish yo'nalishini belgilab bergan muhim tarixiy omil sifatida baholanadi hamda uning natijalari O'zbekiston tarixidagi agrar siyosat evolyutsiyasini anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'zbekistonda 1927–1929-yillarda yer va suvning milliyashtirilishi tarixiy jarayon sifatida agrar munosabatlarning tubdan transformatsiyasini ta'minlagan muhim bosqichlardan biri bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur siyosat o'z mohiyatiga ko'ra ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, bir tomondan ijtimoiy tenglikni ta'minlash va yirik yer egaligini tugatish orqali agrar tizimni yangilashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy mustaqillikning cheklanishi, boshqaruvning haddan tashqari markazlashuvi hamda ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, yer va suvni milliyashtirish siyosati tarixiy zaruriyat mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lib, u eski agrar tizimni inkor etish orqali yangi

iqtisodiy modelning shakllanishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, ushbu jarayon majburiy xarakter kasb etgani sababli uning amalga oshirilishi davomida dehqonlarning manfaatlarini to'liq inobatga olinmagan, bu esa uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqargan.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Tarixiy tajribani chuqur o'rganish zarurati – yer-suv islohotlari tajribasi zamonaviy agrar siyosatni ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Tarixiy jarayonni xolis va kompleks tahlil qilish orqali xatolar va yutuqlarni aniqlash mumkin.

2. Agrar islohotlarda bosqichma-bosqichlik tamoyili – tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, majburiy va keskin o'zgarishlar ijtimoiy ziddiyatlarga olib keladi. Shu bois zamonaviy agrar siyosatda evolyutsion rivojlanish yo'lini tanlash muhim ahamiyatga ega.

3. Iqtisodiy manfaatdorlikni kuchaytirish – yer munosabatlarida subyektlarning iqtisodiy rag'batini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash zarur. Tarixiy tajriba iqtisodiy motivatsiya pasaygan sharoitda tizim samaradorligi kamayishini ko'rsatadi.

4. Resurslarni boshqarishda muvozanatni ta'minlash – yer va suv resurslarini boshqarishda markazlashuv va mahalliy tashabbus o'rtasida optimal muvozanatni saqlash muhimdir. Bu esa resurslardan samarali va adolatli foydalanish imkonini beradi.

5. Ijtimoiy adolat va barqarorlikni uyg'unlashtirish – agrar siyosatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiy barqarorlikni ham hisobga olish zarur. Faqatgina tenglikka asoslangan, biroq samaradorlikni inobatga olmaydigan tizim uzoq muddatda barqaror bo'la olmaydi.

Umuman olganda, 1927–1929-yillardagi yer va suvni milliy lashtirish jarayoni O'zbekiston tarixida muhim burilish nuqtasi bo'lib, uning tajribasi zamonaviy agrar siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mazkur tarixiy tajribani chuqur anglash esa kelajakda yanada samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gurevich A. *Zemelno-vodnaya reforma v Uzbekskoy SSR (1925–1929)* // Voprosy istorii. – 1948. – №11. – 50–63-betlar. (ilmiy maqola)
2. Xojiraxmatova D.S. *Zemelno-vodnye reformy i ix posledstviya v Uzbekistane (1925–1929 gg.)* // Education Science and Innovative Ideas in the World. – 2022. – №2. – 132–134-betlar. (ilmiy maqola)

3. Askarov M.E. *Iz istorii zemelno-vodnoy reformy v Zeravshanskoj oblasti // Ilmiy maqola.* – 2020. – 35–36-betlar. (ilmiy maqola)
4. Ro‘ziyeva H.T. *1925–1941 yillarda o‘tkazilgan yer-suv islohoti va uning og‘ir oqibatlari // Oriental Renaissance.* – 2025. – №5(4). – 569–572-betlar. (ilmiy maqola)
5. Quvvataliyev U.B. *O‘zbekistonda yer-suv islohoti (1925–1929-yillar) tarixshunosligining sovet davrida o‘rganilishi // Ilmiy maqola.* – 2022. – 47–50-betlar.
6. Usmonov Q., Sodiqov M. *O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar).* – Toshkent: Sharq, 2010. – 145–150-betlar. (darslik/kitob)
7. Sodiqov H. *O‘zbekiston sovet davrida: agrar siyosat va kollektivlashtirish.* – Toshkent: Fan, 2005. – 98–110-betlar. (monografiya)
8. Pipes R. *Russia under the Bolshevik Regime.* – New York: Vintage Books, 1994. – 210–225-betlar. (monografiya).
9. Yakhshiyev, A. J. (2026). THE POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT ON THE ERADICATION OF ILLITERACY IN UZBEKISTAN: GOALS AND RESULTS. *International scientific journal of Biruni*, 5(1), 33-37.
10. YAXSHIYEV, A. (2025). O ‘ZBEKISTONDA KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATI: IJTIMOYIY VA IQTISODIY OQIBATLAR. «ACTA NUUZ», 1(1.12), 47-49.
11. Yakhshiev, A. (2025). POLITICAL PROCESSES IN THE ANCIENT PERIOD (IN THE CASE OF THE GRECO-BACTRIAN STATE). *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(3), 1191-1206.
12. Jurakulovich, Y. A. Institute of Technology, Management and Communications Department of “Languages and Socio-Humanitarian Sciences” Candidate of Historical Sciences, Associate Professor.